ISSN 2181-8258
DOI prefiksi:10.69691
IF-9,347

# Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

# TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal

1 (64)
2025

TAMADDUN NURI jurnali
Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal
MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi
“Tafakkur-tamaddun” OOO
“Beruniy avlodlari” jamoat fondi
HAMKORLARIMIZ:
O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti
TAHRIR HAY’ATI:
BOSH MUHARRIR:
Munavvara KURBANBAYEVA
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Anvar ALLAMBERGENOV
BO‘LIM MUHARRIRI:
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD) (AQSh)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig‘ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (AMEA) müxbir üzvü (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.
Zarifboy DO‘SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , f.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. ( Rossiya Federatsiyasi)
Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)
Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)
Vahob RAHMONOV, f.f.n.,dots
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO‘LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Safo MATJONOV, p.f.d., prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O‘rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV
Adabiy maslahatchi:
Guliston MATYOQUBOVA
Rassom:
Alibek ABDURAHMONOV
Sahifalovchi-bezovchi: G‘iyosiddin O‘NAROV
Manzilimiz: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumani.
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog‘oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog‘i 6,5.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2025-yil 30-yanvarda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy. 2025-yil, 1-son (64).
Ushbu son “Tamaddun nuri” jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №28.
Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Tamaddun nuri”dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir. Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a’zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

10.69691 DOI

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

12.00..00 – “YURIDIK FANLAR”

**Игиликов Жаксылык Жолдасбаевич**. Основное понятие и анализ жалоб и апелляций..........................................................................73
Babajanov Farrux Qadamboyevich. Iqtisodiy protsessda sud xarajatlari institutining tushunchasi..........................................................................185
**Туганова Луиза Джураевна**. Роль юриста в защите социальной справедливости и прав человека..........................................................................188

13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

Bozorov Zokir Yuldosh o‘g‘li, O‘tanov Nurbek Abdumalik o‘g‘li. Kompetentli yondashuv asosida matematika o‘qituvchilarini tayyorlashning metodologik xususiyatlari..........................................................................55
Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna. Bolalarni maktab ta’limiga psixologik tayyorgarligi muammolari..........................................................................135
**Tangirova** Ruhshona. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati..........................................................................158
Ibragimova Matluba Maxsudovna. Sog‘om avlod tarbiyalashda badiiy gimnastika va milliy raqs uyg‘unligini ta’minlashning samarador jihatlari 165
Maxmudova Charos Ikromovna. Geografiya ta’limini muvaffaqiyatli tashkil qilishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati..........................................................................194
Yo‘ldashev Umirzoq Xamza o‘g‘li. An’anaviy va raqamli texnologiyalarning ta’limdagi uyg‘unligi..........................................................................197
Duschanova Nilufar Sabirbayevna. Adabiy ta`limni amalga oshirish mexanizmlari..........................................................................218
**Илмуродова Феруза Шакировна**. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашда кластер тизимининг аҳамияти...259
Ismoilova Malika Erkinovna. Boshlang‘ich ta’limda nizolarni bartaraf etishning amaliyotdagi holati..........................................................................285
To‘rayev Azamat Maqsudovich. Zamonaviy jamiyatda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning umumiy farovonlik uchun ahamiyati (Oliy ta’lim muassasalari talabalari hayoti misolida)..........................................................................302
Xujaniyazova Guzal Yuldashevna. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun ta’lim resurslaridan foydalanishning asosiy Komponentlari..........................................................................321
Koshanova Nilufar Maxsudovna. Yevropa iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda intellektual mulk huquqining ahamiyati..........................................................................347

19.00.00.- “PSIXOLOGIYA”

Xayrullayev Qodir Zarfulla **o‘g‘li**. Zamonaviy psixologiyada frustratsiya muammosining o‘rganilganlik darajasi.......................................................... 150
Matchanov Jamshidbek. Stress va ma’naviy salomatlik: zamonaviy qiyinchiliklar va yechimlar..........................................................................236
Ernazarov Nurlanbek Esnazarovich. Abraham Maslouning ehtiyojliklar nazariyasin tahlillash..........................................................................343

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga ko‘ra 07.00.00 - “Tarix”, 09.00.00 - “Falsafa”, 10.00.00 - “Filologiya” ixtisosligi bo‘yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – “Yuridik fanlar”, 13.00.00 – “Pedagogika”, 19.00.00 – “Psixologiya” ixtisosliklari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Qabul qilindi: 28.12.2024 Chop etildi: 30.01.2025 UDK: 509.3/1 (575.7)

# YEVROPA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING AHAMIYATI

***Koshanova Nilufar Maxsudova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)***

# THE IMPORTANCE OF INTELLECTUAL PROPERTY LAW IN ENSURING EUROPEAN ECONOMIC STABILITY

***Koshanova Nilufar Maksudovna, Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University, (PhD)***

# ЗНАЧЕНИЕ ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ЕВРОПЫ

***Кошанова Нилуфар Максудовна, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, (PhD)***



***https://orcid.org/0009-0002-6861-6568***
***e-mail: koshanovanilufar512@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolamizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda intellektual mulk huquqining kafolatlanishi va Yevropa iqtisodiyotiga intellektual mahsulotlarning keltirayotgan foydasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *intellektual resurs, raqobat, dinamizm, intellektual mulk huquqlari, Yevropa patent idorasi, sanoat dizayni, iqtisodiy barqarorlik.*

***Abstract***: *This article analyzes the protection of intellectual property rights in the European Union member states and the benefits of intellectual products to the European economy based on statistical data.*

***Key words:*** *intellectual resource, competition, dynamism, intellectual property rights, European Patent Office, industrial design, economic stability.*

***Аннотация***: *В статье на основе статистических данных анализируется защита прав интеллектуальной собственности в государствах-членах Европейского Союза и преимущества интеллектуальной продукции для европейской экономики.*

***Ключевые слова***: *интеллектуальный ресурс, конкуренция, динамизм, права интеллектуальной собственности, Европейское патентное ведомство, промышленный образец, экономическая стабильность.*

**KIRISH.** Zamonaviy jamiyat tobora kuchayib borayotgan raqobat va dinamizm bilan ajralib turadi. Bugungi haqiqat shundan iboratki, jamiyat taraqqiyotdan orqada qolishini bartaraf qilishda intellektual resurslardan samarali foydalanishni bilish, jamiyatning intellektual madaniyatini rivojlantirish zarur. Hozirgi kunda intellektual mahsulotlar savdosidan katta daromad ko'rayotgan Yevropa davlatlarining tajribalarini o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** MDH tadqiqotchilaridan L.A.Novoselovoy[1], Ye.G.Sablova, O.V.Jevnyak, A.V.Sosninlar intellektual mulk huquqini tizimli o'rgangan. A.G.Sprikin "intellekt" tushunchasini "ong bosqichi" va ongning eng yuqori shakli sifatida individual va shaxsiydir, deb hisoblaydi. V.S.Bibler

o'zining "Tafakkur kabi" asarida aql hodisasini tadqiq qiladi. B.M.Velichkovskiy intellektni funksional darajali kognitiv jaryonlar tizimi sifatida qaraydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan J.M.Raxmonov Yevropada sanoat dizaynining paydo bo'lishi haqida tadqiqot olib boradi. Mamlakatimizda ushbu mavzu tadqiqot ishiga muhtoj.

**MUHOKAMA.** Mamlakatimizda intellektual madaniyatning rivojlanishi bevosita intellektual mulk huquqining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Intellektual madaniyat o'z mazmuniga ko'ra juda murakkab tushunchadir. Intellektual madaniyat jamiyatdagi g'oyalar, fikrlash vositalari, asosiy tushunchalar, mantiqiy texnikalar va atrof-muhitni konsepsiyalash usullari, intellektual faoliyat va uni qo'llab-quvvatlovchi rasmiy va norasmiy institutlar, ilmiy maktablarning kommunikativ amaliyotlari, intellektual aloqaning shakllari va vositalarini o'z ichiga oladi. Intellektual madaniyat makon va zamonning ma'lum koordinatalarida shakllanadi va rivojlanadi. Intellektual mulk huquqlari Yevropaga qancha foyda keltirmoqda? EPO-EUIPO tadqiqot natijalariga ko'ra Yevropa Ittifoqida intellektual mulk huquqlaridan intensiv foydalanadigan tarmoqlar 45% ni tashkil qiladi. Mazkur tarmoqlarda boshqa tarmoqlarga nisbatan 47% ko'proq ish haqi to'lanadi. Intellektual imkoniyatlardan intensiv foydalanadigan sohalarga patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari va mualliflik huquqlari kabi mulkiy huquqlar kiradi (IPR). Statistik ma'lumotlarga ko'ra Yevropa Ittifoqida YAIM ning 45%i (6,6 trillion yevro) intellektual mahsulotlardan kelishi aniqlangan. Bu sohada umumiy hisobda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda jami 63 million ishchi kuchi band. Bundan tashqari yana 21 million kishi ularni ta'minlovchi tovar va xizmatlarga ega bo'lgan sanoat tarmoqlarida ishlaydi.

Bugungi kunda Yevropa patent idorasi (EPO) va Yevropa Ittifoqi intellektual mulk tashkiloti (EUIPO) 2014-2016-yillar oralig'idagi intellektual mulk huquqlaridan foydalanadigan tarmoqlarda bandlik 1,3 million kishiga o'sganligini ma'lum qildilar. Buni mazkur tarmoqlarda boshqa tarmoqlarga nisbatan 47% ko'proq ish haqi to'lanishi bilan izohlash mumkun. Yevropa Ittifoqi intellektual mulk tashkiloti (EUIPO) ijrochi direktori Kristian Archambeauning aytishiga qaraganda Yevropa Ittifoqining kelajagini, rivojlanishini ta'minlashda intellektual mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar katta rol o'ynaydi. Shu o'rinda Yevropa patent idorasi (EPO) prezidenti Antonio Kampinos intellektual mulk huquqidan foydalanadigan sanoatning Yevropa iqtisodiyotida kuchliligi mintaqada intellektga, bilimga asoslangan sanoatning kuchli ekanligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Intellektual mulk huquqlari Yevropa iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi[2]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi sanoat dizayni bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Shu o'rinda sanoat dizayni tushunchasining kelib chiqishi va mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, 1919-yilda nemis me'mori Valter Gropius tomonidan Bauhaus maktabiga asos solingan. Birinchi sanoat dizayn uyushmasi esa 1849-yilda Shvetsiyada tashkil qilingan bo'lib, keyinchalik Germaniya, Avstriya, Norvegiya, Finlyandiya kabi davlatlarda paydo bo'ladi. Sanoat dizaynining ko'lami keng bo'lib, u uy anjomlaridan tortib yuqori texnologiyali ilmiy mahsulotlarni ham qamrab oladi. Sanoat dizayni uchta asosiy ustunni o'z ichiga oladi: texnologiya, sana't va marketing. Sanoat dizaynining asosiy vazifasi ishlab chiqarish estetikasini oshirishdan iborat. Bu sohaga mahsulotni ishlab chiqarishda mehnat sarfi, mexanik elementlarni qisqartirish, mahsulot ishlab chiqarishni soddalashtirish kabi texnologiyalar kiradi[3]. Sanoat dizayni bo'yicha Yevropaning ilg'orligini quyidagi statistik ma'lumotlar bilan izohlashimiz mumkin. 2016-yilda mazkur soha bo'yicha Yevropa Ittifoqida eksport hajmi 66 milliard yevrodan ortgan. Bu esa Yevropa Ittifoqi YAIM ining jami 16,2%ini tashkil qilgan. Shu o'rinda Yevropa patent idorasi haqida ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak, u eng yirik davlat xizmatlaridan hisoblanadi. Bosh qarorgohi Myunxenda joylashgan bo'lib, Berlin, Bryussel, Gaaga, Vena shaharlarida bo'limlari ham mavjud. Yevropa patent idorasida jami 7000 nafar xodim band bo'lib, 44 ta mamlakatda yuqori sifatli patent muhofazasini o'z ichiga oladi (2016y)[5].

**XULOSA.** Umuman olganda, bugungi texnogen sivilizatsiya davrida iqtisodiyotni quvvatlantiradigan yangi g'oyalar zamonaviy iqtisodiy o'sishning muhim qismini belgilaydi. Jamiyat intellektining rivojlanishi yangi mahsulot va xizmatlar dizayni, brendlarga, yangi badiiy ijodning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda intellektual sohaning rivojlanishiga shart-sharoit

yaratish orqali innovatsion mahsulot va xizmatlar koʻlamini oshirish va shu asosida iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Iqtisodiy barqarorlik esa, jamiyat farovonligini ta’minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR ROʻYXATI:


1. А.Ю.Новоселовой. Право интеллектуальной собственности. Статут.Москва. 2017.-С.512.
2. Е.Г.Саблова, О.М.Жевняк / Учебное пособие. Екатеринбург. Из.во Уральского университета. 2020.-С.160.
3. E.Fredrik, G.Oscar, L.Philipp. Research Report The benefits of intellectual property rights in EU Free Trade Agreements: Full report ECIPE Occasional Paper, № 01/2022. Provided in Cooperation witch: European Centre for International Political Economy (ECIPE), Bryussels.
4. J.M.Raxmonov. Sanoat dizaynining paydo boʻlishi va rivojlanishi tarixi//Problems and for the implementation of interdisciplinary research . file:///C:/Users/HP-PC/Downloads/Raxmanov+Jaxongir+Mamasharibovich.pdf5. https://euipo.europa.eu/tunnel
5. Koshanova N.M. Socio-philosophical analysis of the phenomenon of “cultural crash”//European Science Methodical Journal.-2024.T.2.-№6.C.477-480.


TAMADDUN NURI